



## O'QUVCHILARNI VATANGA MUHABBAT RUHIDA TARBIYALASH

ISROILOV MUZAFFAR

*Forish tumani 11-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati, mazmuni hamda samarali shakl va usullari yoritilgan. O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda ta'lim jarayoni, sinfdan tashqari mashg'ulotlar va milliy qadriyatlardan foydalanish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchisining tarbiyaviy jarayondagi o'rni va mas'uliyati asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** Vatan, vatanparvarlik, tarbiya, boshlang'ich ta'lim, milliy qadriyatlar.

**Аннотация.** В статье рассматриваются педагогическая значимость, содержание, а также эффективные формы и методы воспитания у учащихся начальных классов любви к Родине. Проанализирована роль учебного процесса, внеклассной деятельности и национальных ценностей в формировании патриотических чувств. Обоснована роль и ответственность учителя начальных классов в воспитательном процессе.

**Ключевые слова:** Родина, патриотизм, воспитание, начальное образование, национальные ценности.

**Annotation.** The article examines the pedagogical significance, content, and effective forms and methods of educating primary school pupils in the spirit of love for the Motherland. The role of the educational process, extracurricular activities, and national values in the formation of patriotic feelings is analyzed. The responsibility and role of the primary school teacher in the educational process are substantiated.

**Key words:** Motherland, patriotism, education, primary education, national values.

### KIRISH.

Hozirgi globallashuv davrida yosh avlodni milliy g'urur, Vatanga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida, ularning ma'naviy-axloqiy qarashlari va dunyoqarashi rivojlanishida



muhim o‘rin tutadi. Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida Vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish dolzarb pedagogik masala sanaladi.

### ASOSIY QISM.

Vatanga muhabbat — bu shaxsning o‘z yurtiga, xalqiga, ona tiliga, tarixiga va milliy qadriyatlariga bo‘lgan ongli munosabati va sadoqatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mazkur tuyg‘ularni shakllantirish uzluksiz va tizimli ravishda olib borilishi lozim.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida vatanparvarlik tarbiyasi quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

Birinchidan, **o‘quv fanlari orqali tarbiya**. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida Vatan, yurt, tinchlik va mehnat mavzusidagi matnlar, she‘rlar va hikoyalar o‘quvchilarning ongiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Tasviriy san‘at va musiqa darslarida esa milliy ramzlar, madhiyalar va Vatanga bag‘ishlangan asarlar muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, **sifdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar**. “Vatanim – faxrim”, “O‘zbekiston – mening yurtim” kabi mavzulardagi suhbatlar, bayram tadbirlari va ochiq darslar o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, **milliy qadriyatlar asosida tarbiya**. Xalqimizning urf-odatlarini, an‘analari, milliy qahramonlar va tarixiy shaxslar hayoti bilan tanishtirish orqali o‘quvchilarda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usi shakllantiriladi.

Bu jarayonda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining shaxsiy namunasi, nutq madaniyati va kasbiy mas‘uliyati muhim o‘rin egallaydi. O‘qituvchi o‘zi Vatanga sadoqatli bo‘lsa, bu holat bevosita o‘quvchilarga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash boshlang‘ich ta‘limdan boshlab tizimli, uzluksiz va maqsadli tashkil etilishi lozim. Ushbu jarayonda o‘qituvchining pedagogik mahorati, ijodkorligi va milliy qadriyatlarga tayanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan barkamol avlod esa jamiyat taraqqiyotining mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Avloniy A. **Turkiy guliston yoxud axloq.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Abdullayeva Q. **Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi.** – Toshkent: Fan, 2020.
3. Saidahmedov N. **Pedagogik mahorat.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.